



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
VAZIRLIGI

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI



Respublika
Ta'lim Markazi

**2022-2023-O'QUV YILIDA UMUMIY O'RTA TA'LIM
MAKTABLARINING 9-SINF O'QUVCHILARI UCHUN
GEOGRAFIYA FANIDAN YAKUNIY DAVLAT
ATTESTATSIYASINI O'TKAZISH BO'YICHA METODIK
TAVSIYA VA MATERIALLAR**



TOSHKENT – 2023

Imtihon materiallari Respublika ta'limi markazining Geografiya fani ilmiy-metodik kengashida 2023-yil 27-martdagi 1-son qarori asosida foydalanishga tavsiya etildi.

Tuzuvchi:

U. Sarbolayev – Andijon viloyati Buloqboshi tumanidagi 17-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining oliy toifali geografiya fani o'qituvchisi.

Taqrizchilar:

1. M. Hojiyeva – Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi geografiya fani metodisti.

2. V. Fedorko – Toshkent shahar Olmazor tumanidagi 233-maktabning geografiya fani o'qituvchisi (PhD)

Muharrirlar:

O. Y. Musurmonkulova – Respublika ta'lim markazi metodisti.

U. Mamadiyev – Respublika ta'lim markazi metodisti

GEOGRAFIYA

IX SINIF

2022-2023-o'quv yilida umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinflarida geografiya fanidan yakuniy attestatsiya ushbu tavsiya etilgan imtihon materiallari asosida og'zaki shaklida o'tkaziladi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari metodbirlashmalarining yig'ilish qaroriga muvofiq yakuniy imtihon materiallariga 15%-20% gacha o'zgartirishlar kiritishi mumkin.

Imtihonda har bir o'quvchi bittadan biletni tanlab oladi. Tayyorgarlik ko'rish uchun 20 daqiqa vaqt beriladi. Imtihon biletida 3 ta savol va topshiriq berilgan. Birinchisi 9-sinf geografiya kursida o'tilgan mavzularga oid nazariy savol, ikkinchisi VIII-IX sinf geografiya kursida o'rganilgan atamalardan ikkitasini mazmun-mohiyatini ochib berishga qaratilgan topshiriq, uchinchisi esa xarita bilan ishlash orqali yechiladigan amaliy topshiriq tarzida berilgan.

Har bir berilgan savolga javob 5 ballik tizim asosida baholanadi. Masalan: 1-savolga "3" ball, 2-savolga "5" ball, 3-savolga "4" ball qo'yilib, baholar umumlashtirilib so'ngra ulardan o'rtacha ball chiqariladi. $3+5+4=12:3=4$

O'quvchilarni baholashda qo'yiladigan ball ular egallashlari lozim bo'lgan kompetensiyalardan kelib chiqib belgilanadi.

Nazariy savollarga berilgan javoblar baholash mezonlari

T/r	Baholash mezonlari	Ball
1.	O'quvchi tomonidan savolga javob mazmunan atroflicha ochib berilgan, ilmiy xatolarga yo'l qo'yilmagan bo'lsa;	5
2.	O'quvchi tomonidan savolga javob mazmunan umumiy ravishda ochib berilgan bo'lsa, ilmiy xatoliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa;	4
3.	O'quvchi tomonidan savolga javob qisman ochib berilgan bo'lsa, ilmiy xatoliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa;	3
4.	O'quvchi tomonidan savolga javob berishga uringan, lekin javobi mazmunan noto'g'ri bo'lsa;	2
5.	O'quvchi savolga harakat qilsa, umuman javob bera olmasa;	1

**Atamalarning mazmun-mohiyatini ochib berishga qaratilgan
topshiriq javoblarini baholash mezonlari**

T/r	Baholash mezonlari	Ball
1.	Ikkala atamaning mazmun-mohiyati atroflicha ochib berilgan;	5
2.	Bitta atamaning mazmun-mohiyati atroflicha, ikkinchisining mazmun-mohiyati esa qisman ochib berilgan, yoki ikkala atamaning mazmun-mohiyati qisman ochib berilgan;	4
3.	Bitta atamaning mazmun-mohiyati ochib berilgan, ikkinchi atamaning mazmun-mohiyati esa ochib berilmagan;	3
4.	Faqat bitta atamaning mazmun-mohiyati qisman ochib berilgan	2
5.	Berilgan atamalarning mazmun-mohiyati umuman ochib berilmagan;	1

**Xarita bilan ishlashga oid amaliy topshiriq javoblarini
baholash mezonlari**

T/r	Baholash mezonlari	Ball
1.	Geografik obyektlar xaritadan to'g'ri va aniq ko'rsatilgan, ularning geografik o'rnini izohlangan, geografik koordinatalar ilmiy xatolarsiz aniqlangan bo'lsa;	5
2.	Geografik obyektlar xaritadan to'g'ri va aniq ko'rsatilgan, ularning geografik o'rnini izohlangan, geografik koordinatalarni aniqlashda xatolarga yo'l qo'yilgan bo'lsa;	4
3.	Geografik obyektlar xaritadan taxminiy ko'rsatilgan, ularning geografik o'rnini izohlanmagan, geografik koordinatalar aniqlashda qisman xatolarga yo'l qo'yilgan bo'lsa;	3
4.	Geografik obyektlar xaritadan noto'g'ri ko'rsatilgan, ularning geografik o'rnini izohlanmagan, geografik koordinatalar aniqlay olmagan bo'lsa;	2
5.	O'quvchi topshiriqni mutlaqo xato bajargan bo'lsa;	1

Izoh: Amaliy topshiriqlarini bajarish uchun zarur o'quv jihozlari (dunyoning siyosiy xaritasi, O'zbekiston Respublikasining siyosiy-ma'muriy xaritasi) o'qituvchi tomonidan oldindan tayyorlab qo'yiladi.

1-BILET

1. Afrikaning geografik oʻrni va siyosiy xaritasi.
2. “Hududiy mehnat taqsimoti” va “Iqtisodiy geografik oʻrin” atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. Jahonda maydoni 5 mln km² dan katta davlatlar soni nechta va ularni xaritadan koʻrsating. Ularni orasidagi eng kichik davlat poytaxtini geografik koordinatalarini aniqlang.

2-BILET

1. Xitoy iqtisodiyoti va iqtisodiy rayonlari.
2. “Tabiiy sharoit” va “Tabiiy resurslar” atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. “Katta yettilik” davlatlarini xaritadan koʻrsating. Ulardan qaysilari toʻlaligicha Bosh meridiandan gʻarbda va sharqda joylashgan? Eng katta davlat poytaxtini geografik koordinatalarini aniqlang.

3-BILET

1. Prezidentlik va parlamentar respublikalarning asosiy farqi. Respublikalarning turli tiplari qaysi qitʼalarda koʻproq tarqalishi.
2. “Agroiqlimiy resurslar” va “Biologik resurslar” atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. Xaritadan tabiiy resurslarning koʻp turlari bilan yaxshi taʼminlangan mamlakatlarni maydoni jihatidan ketma-ketlikda tartib bilan koʻrsating. Ularning orasida Oʻzbekistondan eng uzoqda joylashgan davlat poytaxtini geografik koordinatalarini aniqlang.

4-BILET

1. Osiyo qitʼasining geografik oʻrni, chegaralari va siyosiy xaritasi.
2. “Migratsiya” va “Urbanizatsiya” atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. Dunyoning siyosiy xaritasidan Yevropadagi orol davlatlarni koʻrsating. Ushbu davlatlarning qaysilari Bosh meridindan toʻlaligicha gʻarbda joylashgan. Bosh meridianga nisbatan eng uzoqda joylashgan orol davlat poytaxtini geografik koordinatalarini aniqlang.

5-bilet

1. Jahon siyosiy xaritasining shakllanishi.
2. “Issiqxona samarasi” va “Aglomeratsiya” atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. Dunyoning siyosiy xaritasidan Osiyo mintaqasidagi orol davlatlarni koʻrsating. Ularni orasidagi eng yirik davlat poytaxtini geografik koordinatalarini aniqlang.

6-BILET

1. Global ekologik muammolar.
2. “Demografik portlash” va “Ijtimoiy soha” atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.

3. Dunyoning siyosiy xaritasidan tayanch rivojlanayotgan mamlakatlarni ko'rsating. Ushbu davlatlarning poytaxtlaridan qaysi birida Quyosh qolganlariga nisbatan erta chiqadi? Ushbu davlat poytaxtining geografik koordinatalarini aniqlang.

7-BILET

1. Mineral resurslar geografiyasi.
2. "Depopulyatsiya" va "Iqtisodiy rayon" atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. Dunyoning siyosiy xaritasidan Afrikaning aholi soniga ko'ra beshta peshqadam davlatlarni ko'rsating. Qit'ada aholisi eng ko'p bo'lgan davlat poytaxti geografik koordinatalarini aniqlang.

8-BILET

1. Urbanizatsiya jarayonining mohiyati. Urbanizatsiya darajasiga ko'ra jahon davlatlarining tasnifi.
2. "Hududiy ishlab chiqarish majmualari (HCHM)" va "Aholining etnik tarkibi" atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. Dunyoning siyosiy xaritasidan po'lat eritish bo'yicha 5 ta yetakchi davlatlarni ko'rsating. Ular orasidan eng kichik davlat poytaxti geografik koordinatalarini aniqlang.

9-BILET

1. Yevropaning tabiiy sharoiti va resurslari.
2. "Megalapolis" va "Hududiy ixtisoslashuv" atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. Dunyoning siyosiy xaritasidan urbanizatsiya darajasi ko'rsatkichlari eng yuqori bo'lgan Osiyo davlatlarini ko'rsating. Ularning orasida janubiy qutbga eng yaqin joylashgan davlat poytaxti geografik koordinatalarini aniqlang.

10-BILET

1. Mamlakatlarning davlat tuzilishi bo'yicha tasnifi.
2. "Globallashuv" va "Rekreatsiya" atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. Dunyoning siyosiy xaritasidan Afrikadagi ichki kontinental davlatlardan beshtasini ko'rsating. Ular orasidan Hind okeaniga eng yaqin joylashgan davlat poytaxti geografik koordinatalarini aniqlang.

11-BILET

1. Fan-texnika inqilobi. Ishlab chiqarishning rivojlanishi va texnologiyalarning ta'siri.
2. "Xalqaro mehnat taqsimoti" va "Melioratsiya" atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. Dunyoning siyosiy xaritasidan OPEK tashkilotiga a'zo davlatlarni ko'rsating. Ushbu davlatlarning poytaxtlaridan qaysi birida Quyosh qolganlariga

nisbatan birinchi ko‘rinadi? Ushbu shaharning geografik koordinatalarini aniqlang.

12-bilet

1. Jahon mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganligi bo‘yicha tasnifi.
2. “Soxta urbanizatsiya” va “Mehnat resurslari” atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. Dunyoning siyosiy xaritasidan Osiyo mintaqasidagi aholisining asosiy qismi islom diniga sig‘inadigan davlatlarni ko‘rsating. Ular orasidan shimoliy qutbga eng yaqin joylashgan davlat poytaxti geografik koordinatalarini aniqlang.

13-bilet

1. Jahon aholisining irqiy tarkibi.
2. “Xalqaro iqtisodiy integratsiya” va “Fraxt” atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. Dunyoning siyosiy xaritasidan urbanizatsiya darajasi ko‘rsatkichlari eng past bo‘lgan Yevropa davlatlarini ko‘rsating. Ularning orasida bosh meridianga eng yaqin joylashgan davlat poytaxti geografik koordinatalarini aniqlang.

14-bilet

1. Yevropaning geografik o‘rni, chegaralari va siyosiy xaritasi.
2. “Yoqilg‘i-energetika balansi” va “Tranzit” atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. Dunyoning siyosiy xaritasidan yirik industrial-agrar mamlakatlar guruhiga kiruvchi davlatlarni ko‘rsating. Ular orasidan Okean va dengizlardan uzoqda joylashgan davlat poytaxti geografik koordinatalarini aniqlang.

15-bilet

1. Amerika qat’asining siyosiy xaritasi.
2. “Texnik ekinlar” va “Magistral” atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. Dunyoning siyosiy xaritasidan po‘lat quyish bo‘yicha yetakchi 5 ta davlatlarni ko‘rsating. Ular orasidan ekvatorga yaqin bo‘lgan davlat poytaxti geografik koordinatalarini aniqlang.

16-bilet

1. Jahon neft va gaz sanoati geografiyasi.
2. “Intensiv qishloq xo‘jaligi” va “Monarxiya” atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. Dunyoning siyosiy xaritasidan Yevropadagi xalqaro turizmning yirik markazlari bo‘lgan davlatlarni ko‘rsating. Ulardan qaysi biri orolda joylashgan. Ushbu davlat poytaxtining geografik koordinatalarini aniqlang.

17-bilet

1. Osiyo mamlakatlarining aholisi.
2. “Ekstensiv qishloq xo‘jaligi” va “Erkin iqtisodiy zona” atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. Dunyoning siyosiy xaritasidan Osiyoning bevosita dengizga tutash bo‘lmagan eng yirik davlatlarini ko‘rsating. Ulardan qaysi biri Kaspiy dengizga yaqin joylashgan. Ushbu davlat poytaxti geografik koordinatalarini aniqlang.

18-bilet

1. Markaziy Osiyo davlatlariga qiyosiy geografik tavsif.
2. “Tashqi savdo” va “Vegetatsiya davri” atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. Yevropa mintaqasidagi maydoni 500 ming km² dan katta bo‘lgan davlatlarni ko‘rsating. Ular orasidan shimoliy qutbga eng yaqin joylashgan davlat poytaxti geografik koordinatalarini aniqlang.

19-bilet

1. Rossiya Federatsiyasi geografik o‘rning ijobiy va salbiy jihatlari, tabiiy sharoiti va resurslari.
2. “Xalqaro savdo” va “Boyitish fabrikasi” atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. Jahonning siyosiy xaritasi yordamida Misr iqtisodiy geografik o‘rniga baho bering. Misr poytaxti geografik koordinatalarini aniqlang.

20-bilet

1. Afrika mamlakatlarining aholisi va xo‘jaligi.
2. “Savdo balansi” va “Jahon xo‘jaligi” atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. Dunyoning siyosiy xaritasidan Osiyodagi orol davlatlari ko‘rsating. Ular orasidan Sharqiy Osiyoda joylashgan davlat poytaxti geografik koordinatalarini aniqlang.

21-bilet

1. Avstraliya Ittifoqining geografik o‘rni va aholisi.
2. “Federativ davlat” va “Agrasanoat majmuasi” atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. Dunyoning siyosiy xaritasidan qirg‘oqlarini Qizil dengiz suvlari yuvadigan Afrika davlatlarini ko‘rsating. Ulardan qaysi birida shimoliy tropik chizig‘i kesib o‘tgan? Ushbu davlat poytaxtining geografik koordinatalarini aniqlang.

22-bilet

1. Germaniya iqtisodiy geografik o'zni tabiiy resurslari va aholisi.
2. "Parlamentar respublika" va "Selluloza" atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. Dunyoning siyosiy xaritasidan "Tayanch rivojlanayotgan mamlakatlar" guruhiga kiruvchi davlatlarni ko'rsating. Ushbu davlatlarning poytaxtlaridan qaysi birida Quyosh qolganlariga nisbatan erta chiqadi? Ushbu shaharning geografik koordinatalarini aniqlang.

23-bilet

1. Eron, Avg'oniston va Pokistonning iqtisodiy geografik o'rinlarini taqqoslang. Qaysi davlatning iqtisodiy geografik o'zni nisbatan noqulay hisoblanadi va nima uchun?
2. "Anklav davlat" va "kooperatsiya" atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. Jahonning siyosiy xaritasidan Afrikaning to'laligicha ekvatoridan janubda joylashgan davlatlarini ko'rsating. Ushbu davlatlarning qaysi biri janubiy qutbga eng yaqin? Bu davlat poytaxti geografik koordinatalarini aniqlang.

24-bilet

1. Yaponiyaning iqtisodiy geografik o'zni tabiiy sharoiti va resurslari.
2. "Eksklav davlat" va "Irrigatsiya mashinasozligi" atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. Fors qo'ltig'i arab davlatlarini xaritadan ko'rsating. Ulardan qaysi birining maydoni eng katta? Bu davlat poytaxti geografik koordinatasini aniqlang.

25-bilet

1. Indoneziya, Malayziya va Singapurning iqtisodiy geografik o'rinlarini taqqoslang va umumiy jihatlarini aniqlang.
2. "Tugamaydigan resurslar" va "Aholining tabiiy ko'payishi" atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. Jahonning siyosiy xaritasidan "O'tish iqtisodiyotidagi davlatlar" blokiga kiruvchi davlatlarni ko'rsating. Ulardan qaysi birining poytaxti bosh meridiandan eng uzoqda joylashgan. Ushbu shaharning geografik koordinatasini aniqlang.

26-bilet

1. Amerika Qo'shma Shtatlarining geografik o'zni va aholisi.
2. "Yalpi ichki mahsulot (YIM)" va "Kombinatlashtirish» atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. Jahonning siyosiy xaritasidan Janubiy Amerika materigidagi unitar davlatlardan 5 tasini ko'rsating. Ushbu davlatlardan qaysi birining maydoni eng uzun meridional yo'nalgan? Ushbu davlat poytaxti geografik koordinatalarini aniqlang.

27-bilet

1. Fors qo'ltig'i arab davlatlarining geografik o'rni va iqtisodiyoti.
2. "Unitar davlat" va "Briket" atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. Jahonning siyosiy xaritasidan Shimoliy Amerika mintaqasi davlatlarini ko'rsating. Ulardan qaysi birining poytaxti Bosh meridiandan eng uzoq joylashgan? Ushbu shaharning geografik koordinatalari aniqlang.

28-bilet

1. Yevropa mamlakatlari aholisining tabiiy ko'payishi, yosh va diniy tarkibi.
2. "Ko'chirilgan kapitalizm davlatlar" va "Rekultivatsiya" atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. Jahonning siyosiy xaritasidan mineral resurslarning ko'p turlari bilan yaxshi ta'minlangan mamlakatlarni ko'rsating. Bular orasidan mamlakatimizga eng yaqin bo'lgan davlatni aniqlang. Ushbu davlat poytaxtining geografik koordinatalarini aniqlang.

29-bilet

1. Jahon aholisining soni va joylashuvi.
2. "Mineral resurslar" va "Shartli yoqilg'i" atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. Jahonning siyosiy xaritasidan hududini janubiy tropik chizig'i kesib o'tgan Janubiy Amerika davlatlarini ko'rsating. Ulardan qaysi birining dengizga chiqish imkoniyati yo'q? Ushbu davlat poytaxtining geografik koordinatalarini aniqlang.

30-bilet

1. Buyuk Britaniyaning geografik o'rni, iqtisodiyoti.
2. "Industrial-agrar iqtisodiyot" va "Teokratik monarxiya" atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. Jahonning siyosiy xaritasidan Osiyodagi Federativ davlatlarini ko'rsating. Ulardan qaysi biri Tinch okeaniga tutashgan? Bu davlat poytaxtining geografik koordinatalarini aniqlang.